

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH | 10 |
| Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich | |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI..... | 16 |
| Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon | |
| FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI..... | 20 |
| Ma'rupova Gulnoz | |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН..... | 24 |
| Муратов Абдулазиз Уктамович | |
| DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY..... | 29 |
| Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar | |
| FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI..... | 34 |
| Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna | |
| MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA | 38 |
| Raximov Alisher Ibragimovich | |
| KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI | 45 |
| BekmurodovAbbos Amiriddinovich | |
| ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC..... | 49 |
| Makhambetova Uringul Reimbaevna | |
| GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH | 55 |
| Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich | |
| GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI | 62 |
| Ergasheva Ma'mura Gayratovna | |
| QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 69 |
| Axmedova Nilufar Shuxratovna | |
| LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH | 74 |
| Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir | |
| BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES | 82 |
| Farida Nishanova | |
| QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR | 87 |
| Abdullayev Axror Jaxbarovich | |
| BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI | 92 |
| Iskandar Yunusov | |



| | |
|--|-----|
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI..... | 98 |
| Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich | |
| KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI | 108 |
| Rahimov Qodir Ergashevich | |
| НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА | 115 |
| Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович | |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI | 124 |
| Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI..... | 128 |
| Raxmonova Nigina Anvarovna | |
| EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA | 132 |
| Farida Nishanova | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI..... | 137 |
| Inobatov Abror Boshlarovich | |
| REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI..... | 144 |
| Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi | |
| ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS») | 151 |
| Мусаева Шоира Азимовна | |
| O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI | 161 |
| Djumayev Zayniddin Axmedovich | |
| O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI..... | 166 |
| Yadgarova Nigora Rixsulla qizi | |
| KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI..... | 170 |
| Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra | |
| АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON)..... | 175 |
| Киямов Рахматулло Рузиевич | |
| MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH..... | 180 |
| Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista | |
| MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISHDA ZAMONAVIY USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR | 184 |
| Begalov Sherzod Maxsutaliyevich | |

MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISHDA ZAMONAVIY USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Begalov Sherzod Maxsutaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-9689-7056

E-mail: begalovserzod@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda moliyaviy qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. An'anaviy moliyaviy boshqaruv usullarining cheklovlari tahlil qilinib, Big Data, Business Intelligence, Real-Time Monitoring va ssenariyli tahlil texnologiyalarining moliyaviy qarorlar samaradorligiga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijasida debitor qarzdorlik, investitsiya xarajatlari, operatsion xarajatlar va pul oqimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashga asoslangan raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy qarorlar, raqamli texnologiyalar, Big Data, Business Intelligence, ssenariyli tahlil, moliyaviy boshqaruv, regressiya tahlili, pul oqimlari.

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of improving the financial decision-making process in enterprises under the conditions of the digital economy. The limitations of traditional financial management methods are analyzed, and the impact of technologies such as Big Data, Business Intelligence, Real-Time Monitoring, and scenario analysis on the effectiveness of financial decisions is assessed. As a result of the study, a digital scenario-based financial management model was developed to evaluate the interrelationships among accounts receivable, investment expenditures, operating costs, and cash flows.

Keywords: financial decision-making, digital technologies, Big Data, Business Intelligence, scenario analysis, financial management, regression analysis, cash flows.

Аннотация. В статье исследуются теоретические и практические аспекты совершенствования процесса принятия финансовых решений на предприятиях в условиях цифровой экономики. Проанализированы ограничения традиционных методов финансового управления, а также оценено влияние технологий Big Data, Business Intelligence, Real-Time Monitoring и сценарного анализа на эффективность финансовых решений. В результате исследования разработана цифровая сценарная модель финансового управления, основанная на оценке взаимосвязи между дебиторской задолженностью, инвестиционными затратами, операционными расходами и денежными потоками.

Ключевые слова: финансовые решения, цифровые технологии, Big Data, Business Intelligence, сценарный анализ, финансовое управление, регрессионный анализ, денежные потоки.

KIRISH

Bugungi globallashtirish sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korxonalar raqobatbardoshligini ko'p jihatdan moliyaviy qarorlarning tezkorligi va asoslanganligiga bog'liq qilib qo'yimoqda. Raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (*Big Data*) va biznes-analitika vositalarining keng joriy etilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda (Bhimani, 2020; Warren et al., 2015). Ayniqsa, infratuzilma xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda debitor qarzdorlik darajasining yuqoriligi, investitsiya dasturlarining kengayishi va operatsion xarajatlarning ortishi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va likvidlikni ta'minlash moliyaviy qarorlarning sifat darajasiga bevosita bog'liq hisoblanadi (Brigham & Ehrhardt, 2021).

An'anaviy moliyaviy rejalashtirish usullari asosan retrospektiv tahlilga tayanadi va iqtisodiy muhit tez o'zgarayotgan sharoitda moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi dinamik bog'liqliklarni yetarli darajada hisobga olishni talab etadi. Shu bois tashqi muhit o'zgarishlariga tezkor moslashish va qaror qabul qilish samaradorligini oshirish moliyaviy boshqaruvning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (Bhimani, 2020).

Shu sababli zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan, *Business Intelligence*, *Real-Time Monitoring* va ssenariyli tahlil vositalari asosida moliyaviy qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda (Schoemaker, 1995; Warren et al., 2015). Qolaversa, mazkur tadqiqotning dolzarbligi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish



va moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan belgilanadi. Xususan, ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli¹ "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli² "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 'Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili'da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 24-maydagi PF-162-sonli³ "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy boshqaruv korxonaning strategik maqsadlariga erishishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalari sifatida moliyaviy resurslarni jalb qilish, ulardan samarali foydalanish, likvidlikni ta'minlash va investitsiya qarorlarini qabul qilish ko'plab olimlar tomonidan qayd etilgan. I.A. Blankning (2004) ta'kidlashicha, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish moliyaviy risklarni kamaytirish va korxonaga barqarorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanish aktivlar aylanishini tezlashtirish va qo'shimcha qiymat yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

Brigham va Ehrhardt (2016) fikriga ko'ra, likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlash moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, pul oqimlarini samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Damodaran (2015) esa investitsiya va moliyalashtirish qarorlari kompaniya qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Bhimani (2020) raqamli ma'lumotlar muhitida moliyaviy boshqaruv tizimlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, real vaqt ma'lumotlariga asoslangan qarorlar korporativ samaradorlikni oshiradi. Schoemaker (1995) ssenariyli rejalashtirish usuli turli iqtisodiy vaziyatlarda qaror qabul qilish sifatini yaxshilashini asoslab bergan. Warren, Moffitt va Byrnes (2015) esa Big Data texnologiyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil jarayonlaridagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va biznes-analitika vositalarining moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Appelbaum va boshqalar (2017) biznes-analitika tizimlari hamda korporativ axborot platformalarining boshqaruv hisobi va moliyaviy qarorlar aniqligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Moll va Yigitbasioglu (2019) internetga asoslangan raqamli texnologiyalar moliyaviy tahlil jarayonlarini transformatsiya qilib, real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishini asoslab bergan. Rikhardsson va Yigitbasioglu (2018) esa *Business Intelligence* va *Analytics* vositalari moliyaviy boshqaruvda prognozlash, ssenariyli tahlil va resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirishini qayd etadi.

Mazkur tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni moliyaviy qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish korxonalarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda debitor qarzdorlik, investitsiya xarajatlari, operatsion xarajatlar va pul oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni kompleks baholovchi integratsiyalashgan raqamli model yetarli darajada ishlab chiqilmagan (1-jadval).

1-jadval

Moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalari, nazariy asoslari va amaliy ifodalanishi⁴

| № | Vazifa yo'nalishi | Nazariy asoslar | Amaliy ifodalanishi | Kutilgan natija |
|---|--|--|---|---|
| 1 | Moliyaviy resurslarni jalb qilish va diversifikatsiya qilish | Zamonaviy moliya nazariyasi, kapital tuzilishi nazariyasi (Modigliani–Miller, 1958) | Kreditlar, aksiyalar, obligatsiyalar va grantlar orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish | Barqaror moliyalashtirishni ta'minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish |
| 2 | Mavjud resurslardan samarali foydalanish | Samarali bozor gipotezasi (Fama, 1970), resurslardan qo'shimcha qiymat yaratish nazariyasi | Aktivlar aylanishini tezlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish | Daromad va foyda ko'rsatkichlarini oshirish |

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-6472548>

4 Manba: Modigliani and Miller (1958), Markowitz (1952), Fama (1970), Baumol (1952), Miller and Orr (1966), Damodaran (2015) nazariyalari hamda moliyaviy boshqaruv bo'yicha ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

| | | | | |
|---|--|--|--|--|
| 3 | Likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlash | Pul oqimlari nazariyasi, likvidlikni boshqarish modellari (Baumol; Miller-Orr) | Kreditorlik va debitorlik qarzdorliklarini samarali boshqarish, <i>cash-flow</i> rejalashtirish | Majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash |
| 4 | Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash | Korporativ barqarorlik nazariyasi, risklarni diversifikatsiya qilish g'oyalari (Markowitz, 1952) | Qisqa va uzoq muddatli aktivlar hamda passivlar mutanosibligini ta'minlash | Uzoq muddatli barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirish |
| 5 | Investitsiya siyosatini yuritish va kapital qiymatini oshirish | Kompaniya qiymati nazariyasi (Damodaran, 2015), investitsiya samaradorligi nazariyasi (NPV, IRR) | Investitsiya loyihalarini baholash, kapital qiymatini hisoblash, innovatsiyalarga sarmoya kiritish | Korxonaning bozor qiymatini oshirish, aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash |
| 6 | Barqaror rivojlanish va ESG mas'uliyati | Barqaror rivojlanish nazariyasi (Brundtland, 1987), institutsional nazariya | Ekologik va ijtimoiy risklarni hisobga olish, hisobotlar shaffofligini ta'minlash | Investorlar ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli ijobiy imijni shakllantirish |

1-jadval ma'lumotlari moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalari moliyaviy resurslarni jalb qilish, likvidlikni ta'minlash, investitsiya qarorlarini qabul qilish va kompaniya qiymatini oshirish bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur vazifalarni amalga oshirishda *Business Intelligence*, *Big Data* va *Real-Time Monitoring* texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish va analitik vositalar asosida takomillashtirish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi debitor qarzdorlik, investitsiya xarajatlari, operatsion xarajatlar va pul oqimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'p omilli regressiya tahlili asosida baholash hamda ushbu bog'liqliklardan kelib chiqqan holda ssenariyli prognozlash va raqamli monitoring elementlarini birlashtiruvchi raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modeli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi. Taklif etilgan yondashuv moliyaviy qarorlarni real vaqt rejimida baholash, likvidlik risklarini erta aniqlash va resurslarni maqbul taqsimlash imkonini berishi bilan mavjud usullardan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, ssenariyli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ko'p omilli regressiya tahlili va prognozlash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida "Hududgazta'minot" AJning 2021–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari tanlandi.

Tahlil jarayonida openinfo.uz axborot portali hamda jamiyatning yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda 60 ta kuzatuv asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Pul oqimlariga ta'sir etuvchi omillarni baholash uchun EViews 12 dasturiy paketi asosida ko'p omilli regressiya modeli tuzildi.

Model parametrlarining statistik ahamiyatligi va ishonchligi iqtisodiy-matematik hamda ekonometrik diagnostika usullari orqali baholandi. Olingan natijalar asosida ssenariyli prognozlash amalga oshirildi va resurslarni taqsimlashning muqobil variantlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida "Hududgazta'minot" AJning 2021–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida moliyaviy qaror qabul qilish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar baholandi. Tahlillar korxonada aktivlar va daromadlar o'sish tendensiyasi mavjud bo'lishiga qaramay, debitor qarzdorlikning yuqori darajasi, tezkor likvidlik koeffitsiyentining me'yoriy darajadan pastligi hamda pul oqimlarini boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatayotganini aniqladi.

Ushbu omillarning pul oqimlariga ta'sirini baholash maqsadida debitor qarzdorlik (AR), investitsiya xarajatlari (INV) va operatsion xarajatlar (OE) omillarini o'z ichiga olgan ko'p omilli regressiya modeli tuzildi.

$$CF = \beta_0 + \beta_1 AR + \beta_2 INV + \beta_3 OE + \varepsilon$$

Bu yerda:

CF – pul oqimlari;

AR – debitor qarzdorlik (Accounts Receivable);

INV – investitsiya xarajatlari (Investment Expenditures);



OE – operatsion xarajatlar (Operating Expenses);

β_0 – modelning erkin hadi (konstanta);

$\beta_1, \beta_2, \beta_3$ – mos ravishda debitor qarzdorlik, investitsiya xarajatlari va operatsion xarajatlarning pul oqimlariga ta'sirini ifodalovchi regressiya koeffitsiyentlari;

ε – tasodifiy xatolik (modelga kiritilmagan omillar ta'siri) (2-jadval).

2-jadval

Regressiya modeli parametrlarini baholash natijalari⁵

| O'zgaruvchi | Koeffitsiyent (β) | t-statistika | p-qiyamat |
|-------------|---------------------------|--------------|-----------|
| AR | -0,428 | -3,71 | 0,001 |
| INV | 0,316 | 2,88 | 0,007 |
| OE | -0,537 | -4,12 | 0,000 |

| Ko'rsatkich | Qiymat |
|----------------|--------|
| R^2 | 0,872 |
| Adjusted R^2 | 0,861 |
| F-statistic | 41,67 |
| Durbin–Watson | 1,94 |

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, model parametrlarini baholash natijalari uning yuqori darajada statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Determinatsiya koeffitsiyentining $R^2 = 0,872$ ga teng bo'lishi pul oqimlaridagi o'zgarishlarning 87,2 foizi tanlangan omillar hisobiga izohlanishini anglatadi. Shuningdek, F-statistic = 41,67 va Prob(F) = 0,000 qiymatlari modelning umumiy jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqladi. Durbin–Watson statistikasining 1,94 ga teng bo'lishi qoldiqlarda avtokorrelatsiya mavjud emasligini ko'rsatdi.

Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, debitor qarzdorlik koeffitsiyenti $\beta = -0,428$ ni tashkil etdi. Bu debitor qarzdorlikning ortishi pul mablag'larining aylanish tezligini sekinlashtirishi va likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Operatsion xarajatlar bo'yicha $\beta = -0,537$ qiymat olindi, bu esa xarajatlar o'sishi moliyaviy natijalarga sezilarli ta'sir etuvchi omil ekanligini ko'rsatadi. Investitsiya xarajatlari bo'yicha $\beta = 0,316$ natija qayd etilib, investitsiyalarning kelgusi davrlarda pul oqimlari o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Model ishonchliligini baholash maqsadida qo'shimcha diagnostik testlar o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, barcha o'zgaruvchilar bo'yicha VIF koeffitsiyentlari 5 dan past bo'lib, multikollinearlik muammosi aniqlanmadi. White testi natijalari geteroskedastiklik mavjud emasligini, Jarque–Bera mezoni esa qoldiqlarning normal taqsimlanganligini tasdiqladi. Bu holat olingan natijalarning statistik barqarorligi va ishonchliligini ko'rsatadi.

Regressiya tahlili asosida pessimistik, bazaviy va optimistik ssenariylar shakllantirildi (3-jadval).

3-jadval

Ssenariyli tahlil natijalari⁶


| Ko'rsatkich | Pessimistik | Bazaviy | Optimistik |
|--------------------------|-------------|---------|------------|
| Debitor qarzdorlik | +20% | 0% | -15% |
| Investitsiya xarajatlari | -10% | 0% | +15% |
| Operatsion xarajatlar | +12% | 0% | %-8 |
| Pul oqimlari | -18% | 0% | +22% |

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, optimistik ssenariyda debitor qarzdorlikning 15 foizga qisqarishi, investitsiya xarajatlarning 15 foizga ortishi va operatsion xarajatlarning 8 foizga kamayishi natijasida pul oqimlarining 22 foizga o'sishi prognoz qilindi. Aksincha, pessimistik ssenariyda debitor qarzdorlikning 20 foizga ortishi hamda operatsion xarajatlarning ko'payishi pul oqimlarining 18 foizga qisqarishiga olib kelishi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida debitor qarzdorlik, investitsiya xarajatlari, operatsion xarajatlar va pul oqimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashga qaratilgan raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modeli taklif etildi (1-rasm).

5 Manba: "Hududgazta'minot" AJning openinfo.uz saytidagi rasmiy yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

6 Manba: Muallif hisob-kitoblari.

3.1.1-rasm. Raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modelining funksional sxemasi


Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modelining funksional sxemasi⁷

1-rasmda taklif etilgan raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modelining funksional tuzilmasi keltirilgan. Model ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, ssenariyli tahlil qilish, moliyaviy qarorlarni qo'llab-quvvatlash va resurslarni optimal taqsimlash bosqichlarini yagona raqamli muhitda integratsiya qiladi.

Bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida monitoring qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezkorligi va asoslanganligini oshirish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval
Taklif etilgan modelning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari⁸

| Ko'rsatkich | Joriy etishdan avval | Keyin |
|---|----------------------|-------|
| Debitor qarzdorlik, % | 21,4 | 16,8 |
| Pul mablag'lari aylanish davri, kun | 67 | 49 |
| Operatsion xarajatlar ulushi, % | 78,2 | 73,6 |
| Qaror qabul qilish muddati, kun | 25 | 9 |
| Resurslardan foydalanish samaradorligi, % | 100,0 | 112,7 |

Taklif etilgan raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modelining iqtisodiy samaradorligi operatsion xarajatlar ulushining qisqarishi hisobiga baholandi. Iqtisodiy samara quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$IS = ST \times \Delta X$$

Bu yerda:

IS – iqtisodiy samara;

ST – sof tushum;

ΔX – xarajatlar ulushining qisqarish darajasi.

“Hududgazta'minot” AJning 2025-yil yakuniy moliyaviy hisobotlari ma'lumotlariga ko'ra, sof tushum hajmi 43 194 041 235 ming so'mni tashkil etgan. Taklif etilgan modelni joriy etish natijasida operatsion xarajatlar ulushi 78,2 foizdan 73,6 foizgacha qisqarib, xarajatlar ulushining kamayishi 4,6 foiz bandni tashkil qildi.

Shunga muvofiq, iqtisodiy samara quyidagicha hisoblandi:

$$IS = 43\,194\,041\,235 \times 0,046 = 1\,986\,925\,897 \text{ ming so'm.}$$

Hisob-kitob natijalari taklif etilgan modelni joriy etish hisobiga korxonada 5,88 foiz miqdorida iqtisodiy samara shakllanganligini ko'rsatdi.

7 Manba: “Hududgazta'minot” AJning openinfo.uz saytidagi rasmiy yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

8 Manba: “Hududgazta'minot” AJning openinfo.uz saytidagi rasmiy yillik moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarda moliyaviy qaror qabul qilishda zamonaviy usullar va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi konseptual xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy qaror qabul qilish samaradorligi korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Tahlillar an'anaviy moliyaviy rejalashtirish usullari tashqi muhit tez o'zgarayotgan sharoitda yanada takomillashtirishni talab etishini, raqamli texnologiyalar esa moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, "Hududgazta'minot" AJ faoliyati tahlili korxonada aktivlar va daromadlar o'sish tendensiyasi saqlanib qolayotganini, shu bilan birga, debitor qarzdorlikni boshqarish va likvidlik ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ko'p omilli regressiya tahlili debitor qarzdorlik va operatsion xarajatlar pul oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, investitsiya xarajatlari esa kelgusida ijobiy moliyaviy natijalarga xizmat qilishini tasdiqladi.

Uchinchidan, ssenariyli tahlil turli iqtisodiy sharoitlarda moliyaviy qarorlarning ehtimoliy natijalarini baholash imkonini berib, debitor qarzdorlikni qisqartirish va investitsiya faolligini oshirish orqali pul oqimlarini yaxshilash mumkinligini ko'rsatdi. Bu esa moliyaviy qaror qabul qilish jarayonida prognozlash va ssenariyli rejalashtirish usullarining ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan raqamli ssenariyli moliyaviy boshqaruv modeli debitor qarzdorlik, investitsiya xarajatlari, operatsion xarajatlar va pul oqimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholash imkonini berishi bilan mavjud yondashuvlardan farq qilishi asoslandi. Mazkur model ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash jarayonlarini yagona raqamli muhitda integratsiya qilish orqali moliyaviy qarorlarning tezkorligi va asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, taklif etilgan modelni amaliyotga joriy etish moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, debitor qarzdorlikni qisqartirish, likvidlik risklarini kamaytirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkonini berishi aniqlandi. Bu holat mazkur modelning yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Fikrimizcha, amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- korxonalarda moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlariga *Business Intelligence, Power BI va Real-Time Monitoring* texnologiyalarini keng joriy etish;
- debitor qarzdorlikni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va erta ogohlantirish indikatorlarini amaliyotga tatbiq etish;
- investitsiya qarorlarini qabul qilishda ssenariyli tahlil va prognozlash usullaridan muntazam foydalanish orqali investitsiya risklarini kamaytirish;
- pul oqimlarini boshqarishning raqamli modellarini joriy etish orqali likvidlik risklarini barvaqt aniqlash va resurslarni maqbul taqsimlash imkoniyatlarini kengaytirish;
- davlat ishtirokidagi yirik infratuzilma korxonalarida moliyaviy boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha yagona korporativ yondashuv va standartlarni shakllantirish;
- kelgusida mazkur modelni boshqa tarmoq korxonalarida aprobatsiyadan o'tkazish hamda prognozlash aniqligini oshirish maqsadida uni makroiqtisodiy omillar bilan boyitish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – 2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida". – 2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023-yildagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-162-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6472548>
4. Bhimani A. Digital Data and Management Accounting: Why We Need to Rethink Research Methods // Journal of Management Control. – 2020.
5. Warren J.D., Moffitt K.C., Byrnes P. How Big Data Will Change Accounting // Accounting Horizons. – 2015.
6. Schoemaker P.J. Scenario Planning: A Tool for Strategic Thinking // Sloan Management Review. – 1995.
7. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. – 17th ed. – Boston: Cengage Learning, 2021.
8. Blank I.A. Finansoviy menejment: o'quv kursi. – 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – Kiyev: Nika-Sentr; Elga, 2004.



9. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. – 15th ed. – Boston: Cengage Learning, 2016.
10. Damodaran A. Corporate Finance: Theory and Practice. – 4th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2015.
11. Markowitz H. Portfolio Selection // Journal of Finance. – 1952.
12. Begalov S. Yashil iqtisodiyotga o'tishda Parij bitimining ko'mir sanoatiga ta'siridan chiqish yo'llari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – T. 3. – № 4.
13. Appelbaum D., Kogan A., Vasarhelyi M., Yan Z. Impact of Business Analytics and Enterprise Systems on Managerial Accounting // International Journal of Accounting Information Systems. – 2017.
14. Moll J., Yigitbasioglu O. The Role of Internet-Related Technologies in Shaping the Work of Accountants: New Directions for Accounting Research // The British Accounting Review. – 2019.
15. Rikhardsson P., Yigitbasioglu O. Business Intelligence and Analytics in Management Accounting Research: Status and Future Focus // International Journal of Accounting Information Systems. – 2018.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100